

MINTAQADA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH: KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIKNI OSHIRISH MASALALARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Mayliyeva Sadoqat Safayozovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti Iqtisodiyot kafedrası v.v.b. dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyatida kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari tahlili qilingan. Shuningdek, Xorazm viloyatida ish bilan bandlik ko‘rsatkichlarining o‘sishi va iqtisodiy o‘shining ahamiyati haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Xususiy tadbirkorlik, davlat-xususiy sheriklik, iqtisodiy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot, kambag‘allikni qisqartirish, bandlik darajasi, investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, ijtimoiy adolat, eksport salohiyati.

KIRISH

Xorazm viloyatida aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni oshirish strategiyalari bugungi globalashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining bosh omillaridan biri sifatida tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususiy tadbirkorlik faolligi, Xorazm viloyatida iqtisodiy o‘sh sur‘atlarini belgilash, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kengaytirish uchun zarurdir. Shu bois, xususiy sektor iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e‘tirof etiladi.

Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta‘minlash maqsadida ko‘plab davlat dasturlari va tashabbuslari amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar, shuningdek, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va investitsiya jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatida aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni oshirish strategiyalari tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur. Bu, o‘z navbatida, viloyatning iqtisodiy rivojlanishiga va aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Xorazm viloyatida aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni oshirish strategiyalari doirasida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati katta. Ushbu hamkorlik, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

1. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari Xorazm viloyatida tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan tadbirkorlik muhitini yaxshilash maqsadida qabul qilingan qonunlar va normativ hujjatlar, xususiy mulkni himoya qilishni ta‘minlaydi.
2. Davlat va biznes o‘rtasidagi hamkorlik shakllari Davlat va biznes o‘rtasidagi hamkorlik shakllari, Xorazm viloyatidagi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Bu hamkorlik, davlat-xususiy sheriklikning samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar orqali amalga oshiriladi.
3. Davlat-xususiy sheriklikning asosiy shakli DXSH, davlat va xususiy sektor o‘rtasida aniq muddatli shartnomalar asosida amalga oshiriladigan hamkorlik shakli sifatida qaraladi. Bu

mexanizm, Xorazm viloyatidagi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi va biznes muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Innovatsion rivojlantirish mexanizmi Xorazm viloyatida tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishda DXSHning roli o'rganilmoqda. Innovatsion yondashuvlar, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.
5. Ijtimoiy tadbirkorlik va davlat-xususiy sheriklik ijtimoiy tadbirkorlik, Xorazm viloyatida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Bu yondashuv, ijtimoiy xizmatlar sohasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.
6. Muvaffaqiyatli amalga oshirish mexanizmlari DXSH O'zbekistonda muvaffaqiyatli amalga oshirishning samarali mexanizmi sifatida tadqiq qilinmoqda. Bu mexanizm, Xorazm viloyatidagi biznes muhitini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.
7. Xatarlarni taqsimlash va resurslarni birlashtirish Davlat-xususiy sheriklik, resurslarni birlashtirish va xatarlarni taqsimlashga asoslangan hamkorlikni ta'minlaydi. Bu yondashuv, Xorazm viloyatidagi iqtisodiy barqarorlikni oshirishga yordam beradi.

Ushbu tahlil, Xorazm viloyatida aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish va bandlikni oshirish strategiyalarida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar keng qamrovli va amaliy natijalarga erishishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining rolini oshirishda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikni qisqartirishning obyektiv zarurligini quyidagicha izohlashimiz mumkin bo'ladi:

- **Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash. Bunda,** kambag'allik darajasining yuqoriligi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa davlatning barqarorligini tahdid qiladi.
- **Iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bunda,** kambag'allikni qisqartirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Aholining xarid qobiliyatini oshirish orqali esa ichki bozorni kengaytirish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish mumkin bo'ladi.
- **Investitsiyalarni jalb qilish.** Bunda, kambag'allikni qisqartirish investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim hisoblanadi.


Bugungi kunga kelib, butun dunyoda kambag'allik chegarasini aniqlashning asosan to'rtta usuli mavjud bo'lib, ulardan biri bu xalqaro kambag'allik standartlari qonuni hisoblanadi. Bunda, mamlakat yoki mintaqa rezidentlarining daromadlari yoki o'rtacha daromadlarining 50 dan 60 % gacha bo'lgan qismi shu mamlakat yoki mintaqaning kambag'allik chegarasi sifatida ishlatiladi va bu eng kam yashash xavfsizligi chegarasi bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchisi, "iste'mol savatchasi usuli" bo'lib, bunda qancha naqd pul kerakligi va naqd pul miqdori kambag'allik chegarasi bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi usuli turmush tarzi usuli hisoblanib, to'rtinchisi Engel koefitsienti usuli hisoblanadi. Engel koefitsienti usulida oilaning oziq-ovqat iste'moliga bo'lgan mutlaq xarajatlarini ma'lum Engel koefitsientiga bo'lib, zarur iste'mol xarajatlarini topiladi. Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hisobotlarida kambag'allik Engel koefitsienti 60 % dan yuqori hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda hisoblangan iste'mol xarajatlari kambag'allik chegarasi bo'lib, u yashash uchun minimal xavfsizlik chegarasi hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlarda oilaning

harajatlarining 1/3 qismi oziq-ovqat sotib olishga sarflanar ekan, shuning uchun ham u kambag'al oila yoki kambag'aldir, shuning uchun ijtimoiy yordam ko'rsatilishi shart deyilgan²⁹⁰.

BMTning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunga kelib, yer yusida qariyb 700 million kishi, ya'ni dunyo aholisining 8,5 foizi o'ta qashshoqlikda - kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan yashaydi. Taxminan 3,5 milliard odam esa, ya'ni dunyo aholisining 44 foizi dunyo aholi sonining oshishi hisobiga kambag'allikda yashaydi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, 2030-yilda 622 million kishi (dunyo aholisining 7,3 foizi) o'ta qashshoqlikda yashashi kutilmoqda. Bu degani, 2024-2030 yillarda 69 millionga yaqin odam o'ta qashshoqlikdan qutulishi kutilmoqda. Dunyo aholisining qariyb beshdan bir qismi tengsizlik yuqori bo'lgan mamlakatlarda yashaydi. Dunyo aholisining atigi 7 foizi tengsizlik past mamlakatlarda yashaydi. Yana shuni ham alohida ta'kidlashimiz mumkinki, so'nggi 30 yil ichida kuniga 6,85 dollardan kam daromadga ega bo'lganlar soni afsuski o'zgarmagan²⁹¹.

Kambag'allikning kelib chiqish sabablariga ko'ra uni umumiy kambag'allik, institutsional kambag'allik, mintaqaviy kambag'allik va sinfiy kambag'allikka bo'lish mumkin. Birinchidan, umumiy kambag'allik deganda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning past darajasidan kelib chiqadigan kambag'allik tushuniladi. Institutsional kambag'allikda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar tomonidan belgilanadigan turli jamoalar, mintaqalar, ijtimoiy guruhlar va shaxslar o'rtasida turmush resurslarining teng bo'lmagan taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lib, muayyan jamoalar, mintaqalar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning kambag'allik holatida bo'lishiga olib keladi. Mintaqaviy kambag'allik esa og'ir tabiiy sharoit va ijtimoiy rivojlanishning past darajasi tufayli yuzaga keladigan kambag'allik hodisasi. Sinfiy kambag'allik deganda esa ayrim shaxslar, oilalar yoki ijtimoiy guruhlarining jismoniy tayyorgarligi, ma'lumot darajasi pastligi, oiladagi mehnat resurslarining kamligi, ishlab chiqarish vositalari va ijtimoiy munosabatlarning yetishmasligi tufayli yuzaga kelgan kambag'allik tushuniladi. Kambag'allikni 2 xil tushuncha bilan izohlaymiz: -mutlaq tushuncha, - nisbiy tushunchadir, shuning uchun kambag'allikni *mutlaq kambag'allik* va *nisbiy kambag'allik*ga ajratish mumkin. Mutlaq kambag'allik deganda yashash uchun minimal ehtiyojlarning yetishmasligi va eng asosiy yashash ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlay olmasligi tushuniladi. Nisbiy kambag'allikda esa oziq-ovqat va kiyim-kechak muammosi hal qilingan bo'lsa-da, turli ijtimoiy a'zolar va turli mintaqalar o'rtasida sezilarli daromad farqlari bo'lishi mumkinligini anglatadi²⁹².

Mamlakatdagi umumiy tendensiyaga muvofiq, Xorazmda ham kambag'allikni qisqartirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda²⁹³.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida shahar va qishloqlarda kambag'allik darajasi (2021-2023 yillar kesimida)²⁹⁴

²⁹⁰ Jumayev O. "Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati". "Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari" jurnali (E)ISSN: 2181-1784 4(21), May, 2024, 34-39-betlar

²⁹¹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlari

²⁹² Jumayev O. "Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati". "Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari" jurnali (E)ISSN: 2181-1784 4(21), May, 2024, 34-39-betlar

²⁹³ www.Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

²⁹⁴ www.Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Unga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston bo'yicha kambag'allik darajasi 17 % ni tashkil qilib, bu shahar hududlarda 13,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, qishloq hududlarda 19,8 % ni tashkil qilgan. Bu davrda iqtisodiy qiyinchiliklar va pandemiyaning ta'siri aholi daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2023-yilda O'zbekiston bo'yicha kambag'allik darajasi 11 % ni tashkil qilib, bu shahar hududlarda 1,8 % ga yana pasayib, 10,1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, qishloq hududlarda 4 % ga pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 12 % ni tashkil qilgan. Bu yil davomida aholi jon boshiga daromadlar o'sishi va ish haqi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi kambag'allik darajasining pasayishiga yordam bergan.

Shuning uchun ham qishloq hududlarga ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi bizning fikrimizcha. Buning uchun qishloq hududda iste'qol qiluvchi shaxslar uchun hech bo'lmaganda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga integratsiyalashgan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va shu hududning o'zida eksportbop mahsulotlarni chet elga eksport qilish yo'llarini taklif qilish kerak. Buning uchun har bir hududning o'zining salohiyatlaridan kelib chiqqan holda, ya'ni drayverlari orqali ixtisoslashtirish kerak deb o'ylaymiz. Ana o'shanda mamlakatimiz va mintaqamizda kambag'allik darajasini yanada pasaytirgan bo'lar edik. Shu o'rinda quyidagi 2-rasm ma'lumotlariga e'tibor qaratishingizni so'raymiz. Unda Xorazm viloyatidagi kam ta'minlangan aholi ulushi (foiz hisobida) 2010-2020 yillardagi ma'lumotlar berilgan. Ushbu 2- rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilda Xorazm viloyatidagi kam ta'minlangan aholining ulushi 20 % bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 13 % ga tushgan. Bu dinamika Xorazm viloyatida aholi farovonligining asta-sekin yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi.

Xorazm viloyatida ushbu ish bilan bandlar sonining oshish dinamikasini quyidagi 2-rasm ma'lumotlaridan yanada yaxshiroq guvohi bo'lishimiz mumkin bo'ladi. Quyidagi 2-rasmda Xorazm viloyatidagi ish bilan bandlik ko'rsatkichlari (foiz hisobida) berilgan bo'lib, unga ko'ra 2010-yilda Xorazm viloyatida ish bilan band aholining ulushi 63,2 % bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 64,7 % ga yetgan. 2021-2024 yillarda esa yillik o'sish sur'ati 0,7 foizga teng bo'lgan. Ish bilan bandlik ko'rsatkichlarining yillar davomida barqaror ravishda ko'tarilishi Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlarining yaratilayotganligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda zarur bo'lib, uning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu hamkorlikning institutsional asoslarini yanada mustahkamlash, barcha sohalarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, innovatsion iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyati kengayadi. Davlat va xususiy sektorning o'zaro ishonchga asoslangan samarali hamkorligi milliy iqtisodiyotning poydevorini mustahkamlaydi va taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining rolini oshirish uchun quyidagi takliflarni amaliyotda qo'llash lozim:

1. **Imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari va grantlar** orqali yangi bizneslarni rag'batlantirish. Bu tadbirlar tadbirkorlik muhitini yaxshilash va yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi.
2. **Xususiy investitsiyalar uchun xavflarni kamaytiruvchi sug'urta va kafillik fondlarini** yanada kengaytirish. Bu, investorlar uchun qo'shimcha ishonch yaratadi va xususiy sektorni rivojlantirishga ko'maklashadi.
3. **Innovatsion loyihalar, startaplar va eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun alohida moliyaviy dasturlarni** joriy etish. Bu dasturlar tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga yordam beradi va mamlakatning global bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytiradi.

Ushbu takliflar amalga oshirilganda, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanadi va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev O. "Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati". "Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari"jurnali (E)ISSN: 2181-1784 4(21), May, 2024, 34-39-betlar



2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlari
3. Jumayev O "Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati". "Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari"jurnali (E)ISSN: 2181-1784 4(21), May, 2024, 34-39-betlar
4. Mengnarov A.I. Davlat-xususiy sherikligi tadbirkorligini tashkil etishning uslubiy nazariy asoslari. // Academic Research in Educational Sciences, Volume3, Issue8, 2022. - 14 b.
5. Хамроев Г.С. Государственно-частное партнёрство в сфере инновационного развития предпринимательства. // ЭФО: Экономика. Финансы. Общество, №2(14), 2025. - с. 85.
6. Shipunova, T. S. (2020). Principles of public-private partnerships as a form of social entrepreneurship. // Economic consultant, 29 (1), 49-56. doi: 10.46224/ecoc.2020.1.5
7. Gapochka I. Role of Public-Private Partnership in the Development of Road Network in Russian Federation. // Bachelor's thesis, August, 2016. Degree Programme in International Business School of Business and Service Management. - p. 4.
8. www.Xorazmstat.uz ma'lumotlari
9. www.stat.uz ma'lumotlari